

## ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

*Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич*

*Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси хузуридаги Фискал институти  
“Солиқлар ва солиққа тортиш” кафедраси доценти (PhD)*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirishning ayrim normativ-huquqiy asoslari, ularning mohiyati, xususiyatlari va amal qilish tartiblari haqida ma’lumotlar bayon qilingan. Unda shuningdek, O‘zbekistonda erkin faoliyat yurituvchi iqtisodiy zonalar tashkil etishning huquqiy mexanizmlari va ular negizida kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etishning normativ asoslari, kichik sanoat zonalar faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlarning ayrimlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** erkin iqtisodiy zona, huquqiy asos, qonun, farmon, qaror, chora tadbir, kredit, investitsiya, loyiha, texnologiya, sanoat, ish o‘rni, ishlab chiqarish.

**Annotatsiya:** v dannoy statye predstavlena informatsiya o nekotorykh normativno-pravovyykh dokumentax sovershenstvovaniya deyatelnosti svobodnykh ekonomicheskix zon v Uzbekistane, ix sushnosti, karakteristikax i poryadke realizatsii. Takje v nem opisanы nekotorye pravovyye mexanizmy sozdaniya svobodnykh ekonomicheskix zon v Uzbekistane i normativnaya baza sozdaniya na ix osnove subyektov malogo predprinimatelstva, dopolnitelnyе меры po povыsheniyu effektivnosti deyatelnosti malыx promыshlennыx zon.

**Klyuchevыe slova:** svobodnaya ekonomicheskaya zona, pravovaya osnova, zakon, ukaz, resheniye, меры, kredit, investitsiya, proyekt, texnologiya, otrasl, rabochee mesto, proizvodstvo.

**Abstract:** this article provides information about some regulatory documents for improving the activities of free economic zones in Uzbekistan, their essence, characteristics and implementation procedure. It also describes some legal mechanisms for creating free economic zones in Uzbekistan and the regulatory framework for creating small businesses on their basis, additional measures to improve the efficiency of small industrial zones.

**Key words:** free economic zone, legal basis, law, decree, decision, measure, loan, investment, project, technology, industry, workplace, production.

### Kirish

Erkin iqtisodiy zona bu, mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir.<sup>1</sup> O‘zbekistonda Erkin iqtisodiy zonalar

<sup>1</sup> Қурбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). хуфиёна иқтисодиётга курашиш жараёнида бюджет интизомини мустақкамлашнинг зарурлиги хуфиёна иқтисодиётга курашиш жараёнида бюджет интизомини мустақкамлашнинг зарурлиги. World Scientific Research Journal, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>

faoliyatini takomillashtirishning normativ-huquqiy asoslari xususida soʻz ketganda avvalombor 1996-yil 25-apreldagi Oʻzbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida”gi Qonuni muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qonunda Oʻzbekistonda erkin faoliyat yurituvchi iqtisodiy zonalar tashkil etishning huquqiy mexanizmlari va ular negizida kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etishning negizlari asoslab berildi<sup>2</sup>.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktyabrdagi PQ-3356-son “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashtiriladigan investitsiya loyihalarini tanlab olish, yer maydonlari ajratib berish tartibi, xomashyo va materiallardan foydalanishni taʼminlash, tadbirkorlik subyektlariga kredit resurslari ajratishning prinsipial yangi tizimi yaratilishini taqozo etdi.<sup>3</sup>

### Tahlillar

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi (2017 yil) qarori va ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur hududlarda erkin ishlab chiqarish zonalar va tadbirkorlikni ragʻbatlantirish, istiqbolli texnologiyalarni joriy etish maqsadida xoʻjalik-moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlar ekanligi belgilab berildi<sup>4</sup>.

Ushbu normativ-huquqiy bazaning shakllanishi shubhasiz ular soni va maxsulot sifatini oshishiga turtki berdi. Vaholanki, 2018-yilgacha boʻlgan davrda mamlakatimizda 16 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritgan edi, 2019-yil yakuniga kelib ular soni 21 taga yetgan boʻlsa, 2021-yil oxirida ular 23 taga yetgan va 348 ta kichik sanoat zonasi faoliyat olib borgan.<sup>5</sup> Erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 2,6 mlrd dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilib, 36 mingga yaqin ish oʻrni yaratilgan. Kichik sanoat zonalarida esa 5 trln soʻmlik 1497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi taʼminlangan<sup>6</sup>. Xususan, “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax”, “Urgut”, “Gʻijduvon”, “Koʻqon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollarga teng 62 ta loyiha amalga oshirilgan, 4,6 mingdan ortiq ish oʻrni yaratilgan. Mamlakatimizda kichik sanoat zonalar qariyb 100 taga yetdi. Bugungi kungacha ushbu hududlarda umumiy qiymati 535 milliard soʻmga teng 1021

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, -T., 1996-y., 5-6-son., Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, -Toshkent., 2003-y., 5-son, 67-modda; Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, -Toshkent., 2005-y., 49-50-son.

<sup>3</sup> Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iqtisodiyotni kamaytirishda eksport-import operatsiyalarini takomillashtirish yoʻllari. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 269–275. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884> dan olindi

<sup>4</sup> Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

<sup>5</sup> Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iqtisodiyot sharoitida nazorat oʻrganlari faoliyatini yana takomillashtirish. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 221–231. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880> dan olindi

<sup>6</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2021/04/28/eiz/>

ta loyiha amalga oshirilgan. Yangi korxonalar ishga tushishi tufayli 9,6 mingdan ziyada ish o'rnini yaratilgan.<sup>7</sup>

Albatta bunda qabul qilinayotgan qonunlar va Prezident qaror va Farmonlari muhim rol o'ynadi. Bu borada qabul qilingan yana bir muhim hujjat bu "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 25-oktyabrdagi PQ-3356-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yildagi qarorida tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga va zonani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan tartibot o'rnatilishi mumkinligi belgilab berildi<sup>8</sup>.

2021-yil 14-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida ushbu hududlardagi investorlarning huquq va manfaatlari himoyasini mustahkamlash, shuningdek, tadbirkorlarning muammo va takliflarini bevosita o'rganish, 2020-yil 1-yanvardan boshlab maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor bo'lganligi munosabati bilan mazkur soliq imtiyozlarining foydalanilmay qolgan qismi 2020-yil 1-oktyabrga qadar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilarining reestriga kiritilgan ishtirokchilar uchun, ular tomonidan kiritilgan investitsiyalar hajmidan kelib chiqqan holda, ular reestrga kiritilgan sanadan boshlab 3 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatlarda to'liq qo'llanilishi belgilandi. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga 2021-yil 15-sentyabrdan boshlab mahsulot ishlab chiqarishda va o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallarni import qilganda qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona bojini foizlar hisoblanmagan va ularning to'lanishini ta'minlash talab etilmagan holda 120 kungacha muddatga kechiktirib (bo'lib-bo'lib) to'lash huquqi berilishi ko'zda tutildi.<sup>9</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyundagi PF-153-son "Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonida maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini (keyingi o'rinlarda - sanoat zonalarini) faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada soddalashtirish, investitsiyalar jalb qilish uchun sharoitlarni yaxshilash, investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirishni ta'minlash, shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi daromadlarini oshirish ko'zda tutildi.<sup>10</sup>

Shuningdek, 2023-yil 7-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maxsus iqtisodiy zonalar hududida investorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" gi qarorida maxsus iqtisodiy zonalar hududida faoliyat yuritish istagini bildirgan investorlarga qulayliklar

<sup>7</sup> Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy nazorati va uni takomillashtirish yo'nalishlari. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 248–259. <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882> dan olindi

<sup>8</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

<sup>9</sup> Muxiddin Abdullaevich Qurbonov, & Ergashev Uyg'un Jabborovich. (2023). kameral soliq tekshiruvda inson omilini kamaytirishda smart texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 260–268. <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883> dan olindi

<sup>10</sup> Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). xufiyona iqtisodiyotda eksport-importni soliqqa tortish tartibi. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 21 (1), 176–181. <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875> dan olindi

yaratish, ularning maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalari va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik jarayonlarini avtomatlashtirish kbi masalalar o'z aksini topgan.<sup>11</sup>

Albatta bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalarda soliq masalalari va ularni soddalashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona soliq to'lovi faqat kichik biznes subyektlari- mikrofirmalar va kichik korxonalariga tatbiq etilishi belgilangan bo'lsada, ushbu zonalarga soliq va boshqa imtiyozlar ham berilgan. Bunday imtiyozlar respublikada tashkil etilgan Erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarga ham taqdim etilgan bo'lib, erkin iqtisodiy zonalarda soliq va bojxona imtiyozlarini hisoblash muddati erkin iqtisodiy zona qatnashchisiga erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi, degan guvohnoma berilgan kundan e'tiboran emas, balki soliq va bojxona imtiyozlari EIZ (Erkin iqtisodiy zona) ishtirokchisi o'z korxonasini ishga tushirib, mahsulot ishlab chiqarishni boshlagan vaqtdan boshlanishi asoslab berilgan.

Ya'ni, o'tgan davr mobaynida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini tartibga soladigan mustahkam qonunchilik va me'yoriy baza yaratildi, ularni rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashadigan keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalari tizimi shakllantirildi.<sup>12</sup>

Albatta yalpi ichki mahsulot yaratish va investitsiyalarni jalb qilishda tashkil etilayotgan erkin iqtisodiy zonalar muhim rol o'ynamoqda. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishning muhim yo'nalishlaridan biri – maxsus erkin iqtisodiy zonalarini shakllantirish bo'ldi. Mamlakatimizda Navoiy, Jizzax, Angren, G'ijduvon, Qo'qon, Urgut, Hazorasp erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etilib, ular bugungi kunda o'z faoliyatini samarali olib bormoqda. Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunarlar xarid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiёт jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 million dollar miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochildi.<sup>13</sup>

Umuman, bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalaridagi ishlab chiqarishning kengayishi ushbu hududlarda aholini ish bilan ta'minlab, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.<sup>14</sup> Bunda uning normativ-huquqiy asoslari muhim rol o'ynamoqda. Muhimi, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirishning normativ-huquqiy asoslari, ularning xususiyatlari va amal qilish tartiblarini takomillashishiga xizmat qilmoqda. Aholining ehtiyoji, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning turlari va erkin iqtisodiy zonalarining tarixiy-tabiiy imkoniyatlari inobatga olingan holda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar hajmini kengaytirish va jahon bozorida yetarli darajada mavqega ega bo'lishga imkoniyat yaratmoqda. Bu albatta bizningcha, mamlakatda mahsulot ishlab chiqarishning ortishiga, eksport hajmining oshishi va xorijiy investitsiyalar oqimining

<sup>11</sup> Qurbonov Muxiddin Abdullaevich. (2023). davlat xaridlari jarayonlarini tashkil etishi va boshqarishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarni takomillashtirish. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali, 16(1), 170–177. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2715> dan olindi

<sup>12</sup> Pardaev Fayzulla Gaffarovich, & Muxiddin Abdullaevich Qurbonov. (2023). istiqbolda qo'shilgan qiymat solig'i xisobini yuritishda avtomatlashtirilgan dashboardlardan samarali foydalanish. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali, 21 (1), 189–196. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877> dan olindi

<sup>13</sup> Bozorov S. O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish.// Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent., 2018.-B 6.

<sup>14</sup> Курбанов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)



ko‘payishiga olib keladi.<sup>15</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ НАЗОРАТИНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 197–210. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2878>
2. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 221–231. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2880>
3. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 248–259. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2882>
4. Мухиддин Абдуллаевич Курбонов, & Эргашев Уйғун Жабборович. (2023). КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИДА ИНСОН ОМИЛИНИ КАМАЙТИРИШДА СМАРТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 260–268. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2883>
5. Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)
6. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТАРТИБИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 176–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2875>
7. Пардаев Файзулла Фаффарович, & Мухиддин Абдуллаевич Курбонов. (2023). ИСТИҚБОЛДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ХИСОБИНИ ЮРИТИШДА АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ДАШБОРДЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ. World Scientific Research Journal, 21(1), 189–196. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2877>
8. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ КАМАЙТИРИШДА ЭКСПОРТ-ИМПОРТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 269–275. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2884>
9. Курбонов Мухиддин Абдуллаевич. (2023). ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТГА КУРАШИШ ЖАРАЁНИДА БЮДЖЕТ ИНТИЗОМИНИ МУСТАҲКАМЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 153–165. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2873>
10. Файзиев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ: РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА СОЛИҚ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ. Gospodarka i Innowacje., 42, 426-434. [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue\\_view\\_32/article/view/2099](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2099)
11. Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич. (2023). КЎЧМАС МУЛКНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 232–247. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2881>

<sup>15</sup> Курбонов, М. (2020). Зарубежный опыт эффективного использования финансовых ресурсов государственных целевых фондов. Экономика И Образование, 1(5), 163–166. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economy\\_education/article/view/4823](https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4823)

12. Султанов Махмуд Ахмедович. (2023). ИНВЕСТИЦИЯ ФОНДЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 163–169. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2714>
13. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(6), 1-8. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/4460>
14. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
15. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
16. Тулаев Мирзакул Саламович. (2023). КОРХОНАЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШҚИ АУДИТОРЛАР ТОМОНИДАН ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 252–258. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2724>
17. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. *Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби*, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
18. Асаналиевна, С. З. (2022). Факторы Устойчивого Развития Предприятий. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(4), 65-70. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QSMX8>
19. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. *Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar*, 4 (20)-сон, 170-175.
20. Ibragimov G. (2022). Keeping records of imported goods while improving customs administration in Uzbekistan. *International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM)*, 12(11), 30-34. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM3Nov22-Uzb.pdf>
21. Nargiza Samadova. (2023). INFORMATION SOURCES OF ECONOMIC COMPETENCE ANALYSIS OF ECONOMIC SUBJECTS AND THEIR CLASSIFICATION. *Academia Repository*, 4(12), 278–283. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/290>
22. Tulaev, M. (2020). Учет корпоративных облигаций. *Архив научных исследований*, 1(25). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2783>
23. Yakubov Ulugbek. (2023). ISSUES OF ASSESSING THE JOINT ACTIVITY OF BUSINESS ENTITIES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 57–61. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/557>.
24. Yakubov U. (2021). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND METHODOLOGY IN ORGANIZATION OF JOINT VENTURES. *Эконмока и бизнес: теория и практика*. 4-2 (74). ISSN 2411 0450.
25. Yakubov U. (2022). MODELING THE ANALYSIS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY. *Web of scientist: International scientific research journal* ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2
26. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>

27. Ibragimov G. (2022). Introduction of digital solutions to the economy of Uzbekistan: problems and solutions. *International Journal of Research in IT and Management (IJRIM)*, 12(9), 34-39. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRIM2Sep22-Uzb-1.pdf>

28. Ibragimov G. (2022). Digitalization of the economy of Uzbekistan: experience and prospects. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 12(05), 102-109. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-May2022.pdf>

29. Tulaev, M. (2021). МҲҲС БЎЙИЧА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ: ТАЙЁРЛАШ ВА АВТОМАТЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*.

30. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>

31. Sultanov, M. (2023). Features of Dividend Allocation and Taxation in Investment Funds of Uzbekistan. *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN, 2249(0892).

32. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>

33. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. *SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH*, 74. Retrieved from [https://bmpubgroup.com/assets/1\\_26\\_4\\_1.pdf#page=75](https://bmpubgroup.com/assets/1_26_4_1.pdf#page=75)

34. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529>

35. Ibragimov G. (2023). Problems of training financial analysts in the republic of Uzbekistan. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 13(06), 108-115. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS11June23-Uzb.pdf>

36. Sagdillayeva, Z. A. (2023). BUSINESS ANALYSIS IS A NEW DIRECTION OF ANALYTICAL WORK. *Intent Research Scientific Journal*, 2(6), 93-104.

37. Asanaliyeva, S. Z. (2022). ASSESSMENT OF THE FINANCIAL STABILITY OF THE ENTERPRISE. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(10). Retrieved from <https://johuns.net/index.php/publishing/454.pdf>

38. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). TAX POTENTIAL AS AN INDICATOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 41–45. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/305>

39. Yuldasheva Umida Asanaliyevna. (2023). THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF "TAX POTENTIAL" AND METHODS OF ITS ASSESSMENT. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(8), 21–25. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/302>

40. Tulaev, M. (2019). Финансовая отчетность: на пути соответствия национальным и международным стандартам. *Архив научных исследований*, 1(1). Извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/723>

41. Tulayev M., Axmedov A. (2023). Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 8, 71-77

42. Tulayev M. (2023). Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 6, 134 - 138.

43. Samadova Nargiza Rasulovna. (2022). ANALYSIS OF INDICATORS REPRESENTING THE ECONOMIC POTENTIAL OF ECONOMIC ENTITIES AND ITS

DISTINCTIVE FEATURES. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(11), 108-111. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejrds/article/view/2960>

44. Якубов, У. (2023). КОРХОНАНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(4), 132–139. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/12603>.

45. М.Ю.Рахимов. (2023). МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТАҲЛИЛИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. *World Scientific Research Journal*, 21(1), 211–220. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2879>

46. Ибрагимов, Г. А. (2023). ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ВОПРОСЫ БЕЗОПАСНОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 68-73.

47. Ibragimov, G. A. (2021). Business Analysis In The Digital Economy. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7), 4543–4549.

48. Нурманов, У. А. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ ГЛОБАЛЛАШУ ШАРОИТИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТАҲЛИЛИНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *"Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал*, 4(6). Retrieved from <http://interjournal.uz/index.php/journals/article/view/82>

49. Нурманов, У. А. (2022). ХЎЖАЛИК СУБЪЕКТЛАРИДА ЖОРИЙ АКТИВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(2). Retrieved from <https://tadqiqot.uz/index.php/economy/article/view/4757>

50. Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўқув қўлланма.-Т.;“Iqtisod-Moliya”, 2013. -390 б.